



## ILLUMINATION OF "MASTER-DISCIPLE" TRADITIONS IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF EASTERN THINKERS

**Kuvonchbek S. Koshboyev**

*Master's student*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [khajutbekqoshboyev@gmail.com](mailto:khajutbekqoshboyev@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** teacher - student, profession - craft, apprenticeship, craft, craftsman, scientists, professional skills.

**Received:** 19.02.23

**Accepted:** 21.02.23

**Published:** 23.02.23

**Abstract:** Since time immemorial in the East, educated, skillful, honest people have been valued and respected. The relationship between teacher and student, the rules and requirements of becoming an apprentice, the importance of learning a profession from a young age have always been in the center of attention of educated people, scholars and scientists.

## SHARQ MUTAFFAKKIRLARI ILMIIY MEROSIDA "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANALARINING YORITILISHI

**Quvonchbek S. Qo'shboyev**

*Magistr talabasi*

*O'zbekiston Milliy Universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [quvonchbekqoshboyev@gmail.com](mailto:quvonchbekqoshboyev@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** ustoz-shogird, kasb-hunar, shogirdlik, hunar, hunarmand, olimlar, kasb mahorati.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq xalqlarida azaldan qadrlanib kelingan ustoz-shogird an'analari, uning kasb-hunarni yosh avlodga o'rgatilishidagi ahamiyati, ustoz-shogird maktablarining hududiy o'ziga xos xususiyatlari haqida bayon qilingan. Shuningdek, bu tizimning tarixiy shakllanishi jarayonlari allomalarimizning ilmiy asarlaridagi ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

## ОСВЕЩЕНИЕ ТРАДИЦИЙ «УЧИТЕЛЬ-УЧЕНИК» В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

**Кувончбек С. Кошбоев**

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [khajutbekqoshboyev@gmail.com](mailto:khajutbekqoshboyev@gmail.com)

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** учитель-ученик, профессия-ремесло, ученичество, ремесло, ремесленник, ученые, профессиональные навыки.

**Аннотация:** С незапамятных времен на Востоке ценились и уважались образованные, умелые, честные люди. Взаимоотношения учителя и ученика, правила и требования вступления в ученики, важность обучения профессии с юных лет всегда были в центре внимания образованных людей, ученых и ученых.

---

### KIRISH

Sharq xalqlarida qadimgi davrlardan buyon kasb-hunarga alohida e'tibor qaratilgan va hunarli insonlar doimo xalqning e'zozida bo'lishgan. Ustozning shogirdlariga mehri, shogirdlarning ustozlariga bo'lgan hurmatlari nihoyatda baland bo'lgan. Sharq mutaffakkirlari, olimlari doimo biror-bir kasbga ega bo'lishni ilm va savodli bo'lish bilan uyg'unlikda tasavvur qilganlar. Sharqda va musulmon olamida ilmu hunar o'rgatish va halol mehnat bilan kasb-hunar sohibi bo'lishga juda katta ahamiyat berilgan. Buning isboti sifatida, muqaddas kitob bo'lmish Qur'oni Karim, hadis-u sharif va axloq-odobga doir boshqa kitoblarda ilk temirchilik sohasi bilan shug'ullangan Dovud alayhissalom, qo'lga ilk marotaba igna-ip olgan va to'quvchilik bilan shug'ullangan Idris alayhissalom qissalari orqali insonlarni hunar o'rganishga, halol yo'l bilan hayot kechirishga da'vat qilishgan. Hattoki, mashhur mutaffakkir olimlarning ham qo'lida o'z hunarlari bo'lgan va hayotlarining qiyin damlarida ana shu hunarlari orqali ro'zg'or tebratganlar.

### ASOSIY QISM

Sharqda Arastudan keyin "ikkinchi muallim" deya shuhrat qozongan Abu Nasr Farobiy – bog'bonlik bilan, XV asrda yashagan, mumtoz adabiyot taraqqiyotida g'azalگو'y va qasidanavis shoir sifatida mashhur bo'lgan Sakkokiy – pichoqchilik bilan, shoir Zavqiy – maxsido'zlik kabi hunarlar bilan shug'ullanishgan. Shuningdek, mashhur avliyo, naqshbandiya tariqati asoschisi Xo'ja Bahouddin Naqshband ham hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Turkistonda birinchilardan bo'lib odamlarni hunar o'rganishga chorlaganlar va o'zlari ham qalin ipak mato – kimhob to'qib tirikchilik qilgan va bir nechta shogirdlariga ham ushbu hunarni o'rgatganlar.

Qo'lida hunari bor insonlar har doim olimlar tomonidan e'zozlanib kelingan. Jumladan, Yusuf Xos Hojib hunarmandlarni "bu dunyoda yaxshilik keltiruvchilardir" deya ta'riflagan. "Qutadgu

bilig” asarida hunarmandlar xususida: “Juda zarur kishilardir..., temirchi, tikuvchi, etikchi, suvchi, to‘quvchi, egarchi, toshchi, o‘qchi, kamonchilarning foydasi katta... bu dunyoda ular yaxshilik keltiradilar” – kabi fikrlarini bayon etadi. G‘azal mulking sultoni bo‘lmish Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” nomli asarida tasavvuf pirlari va shaxylari haqida so‘z yuritib, Xo‘ja Abdulla Ansoriy – etikdo‘z, Shayx Abubakr Habboz – novvoy, Shayx Omuliy – qassob, Shayx Ashaliy – g‘isht teruvchi, shayx Abu Hasan duradgor bo‘lganliklarini qayt etib bir qancha misollar keltirgan. Sadiy Sheroziy o‘zining “Guliston” asarida hunarni yuqori darajaga ko‘taradi va bolalarni yoshlikdan mehnat qilib hunar o‘rganishga va ushbu davr mobaynida barcha qiyinchiliklarga sabr qilishga da’vat etadi.

Abu Nasr Farobiy ham o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida hunar egallashni ilm egallash yo‘lidagi muhim qadamlardan ekanligini, har kim ilm hikmatini o‘rganmoqchi bo‘lsa uni yoshlikdan boshlamog‘i lozimligini, har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerakligini alohida ta’kidlaydi.

Kasb-hunarni mukammal egallash uchun yetuk ustozga shogird tushish va uning ko‘magida ushbu sohaning barcha sir-asrorlarini puxta o‘rganish muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq, o‘z kasbining mohir ustasi hisoblangan hunarmand ham duch kelgan insonni o‘ziga shogirlikka qabul qilavermagan. Shogird tushishning ham o‘ziga yarasha tartib qoidalari, odob-ahloq normalari mavjud bo‘lgan. Sunnatulla Abdumannof o‘g‘li va To‘lqin Abduqosim o‘g‘li tomonidan tuzilgan “Musulmonlar taqvim kitobi”da ushbu masalalarga to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, unda shunday yoziladi: “Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi? - deya so‘rasalar, ibodat ustiga, deya javob bergin. Agar ibodat nimadir? – deya so‘rasalar, samo va toatdir deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir? – deya so‘rasalar, nimaki ustoz aytsa uni jon qulog‘i bilan eshitish, chin ko‘ngil bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishdir, deb ayt. Agar shogird uchun nima yaxshi? – deya so‘rasalar, pok e’tiqod, deb ayt chunki faqatgina pok e’tiqod kishini murodiga yetkazadi. Agar shogird nima orqali maqsadiga yetadi? – deb so‘rasalar, xizmati orqali deb aytgin. Agar xizmatning binosi nimaga qurilgan? – deb so‘rasalar, rohatni tark etish va zahmat chekish, deb aytgin. Agar shogirdlikning ruknlari nechta? – deb so‘rasalar, to‘rtta deb aytgin. Birinchisi - mard bo‘lib ishga kirishish, ya’ni futuvvat yo‘lini mardona qabul qilish, zero, kirishmasdan qo‘rqib turish – yo‘ldan qaytishdan ham yomonroqdir. Ikkinchisi – sitqidildan xizmat qilish. Uchinchisi – ko‘ngilni va tilni bir-biriga muvofiq tutish, ya’ni to‘g‘ri gapirib, to‘g‘ri amal qilishdir. To‘rtinchisi – nasihatga quloq solish va ustozdan eshitganlarini yodda saqlash va unga amal qilishdir.

Agar shogirdlikning odobi nechta? – deb so‘rasalar, sakkizta deb aytgin. Avval shuki, ustozning qabuliga kirganda, birinchi bo‘lib salom berish. Ikkinchisi – ustozning oldida oz gapirish. Uchinchisi – boshni oldinga egib turish. To‘rtinchisi – ko‘zni har tomonga yugurtirmaslik. Beshinshisi – agar masala so‘ramoqchi bo‘lsa, oldin ustozdan ijozat olish. Oltinchisi – ustoz javob aytganda, e’tiroz

bildirmaslik. Yettinchisi – ustozning oldida boshqalardan g'iybat qilmaslik. So'ngisi esa – o'tirib turishda hurtmadni to'liq saqlashdir.

Ko'rib turganimizdek, milliy qadryatlarimizda qadim zamonlardan buyon ustoz – shogir munosabatlariga alohida bir insoniy amal sifatida qaralgan, ushbu munosabatlarda, bir qarashda mayda narsadek tuyulgan fazilatlar, aslida yaxshi hunar egasi bo'lishlikning insoniy sharti hisoblangan. Bu o'gitlar hozirgi kunda ham nafaqat hunar o'rganish jarayonida balki barcha sohalarda ham juda ibratli va dolzarbdir.

Ilk uyg'onish davrida yetishib chiqqan sharqning buyuk allomalari, shoirlari, ulamolari jamiyat rivoji, ilm-fanning taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shishlari bilan bir qatorda, hunar va ilm egallashda, ustozlarning o'rni beqiyosligiga, uning ahamiyatining nechog'lik muhimligiga ham e'tibor qaratahgan. Shunday allomalardan biri Ibn Sino "Oltin olmagine o'rgangan hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar" kabi durdona nasihatlarini orqali yoshlarni hunar o'rganishga undagan bo'lsa, Alisher Navoiyning "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim" ruboiylarida ham yoshlarni ilm egallashga da'vat qilganlar. Shunindek, ustozlik ilmining murakkabligi, ustoz mavqeyining yuqoriligini va shogirdlarning ustozlarini e'zozlashlari kerakligini ushbu misralardan bilib olish qiyin emas:

*"Haq yo'linda kim senga bir xarf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganch ila".*

XV asrda yashab ijod qilgan ma'rifatparvarlardan biri bo'lgan Xusayin Voiz Koshifiy ustoz va muallimlarni hurmatini o'rniga qo'yganlar bu dunyoda ham oxiratda ham saodat topadilar deya o'z asarlarida qayt etgandi. Uning fikricha, saodat dalili to'rt narsadadir: to'g'ri so'zlash, tavoze, halol kasb hunar egallash va sir saqlashdir. Ya'ni biror kasbni mukammal egallash yoki uni boshqalarga o'rgatish olimning qarashlarida asosiy o'rinda bo'lgan.

Ko'plab allomalar, jumladan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Husrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Amir Temur va Zahridin Muhammad Bobur kabi shoh va shoirlar o'zlarining yaratgan betakror asarlari va qilgan ishlari orqali yoshlarni bilim va hunar egallashga chaqirganlar. Xususan Amir Temur hunarmandlar, yuksak bilim egalari, olimlarni chuqur hurmat qilgan va har doim ularga o'zining yuksak e'tiborini ko'rsatgan.

Sharq xalqlarida azal-azaldan yuksak ilmli shaxslar, qo'lida hunari bor insonlar doimo e'zozlangan. Yoshlarga bolalik davrlaridanoq biror bir hunar egallashga, o'ziga ustoz topishga, ustozning o'rgatgangan barcha bilimlarini sabot bilan egallashga chaqirilgan. Ustoz – shogird munosabatlari juda ham iliq bo'lgan. Shu sababli ham xalqimizning tarixi, madaniyatini o'zida aks ettirgan ko'plab milliy hunarmandchiligimiz an'analari avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Халқ мероси, 1993.

2. Эшметов Ш.А. Устоз-шогир муносабатларининг ижтимоий-психологик феноменлари: Психология фанлари номзоди...дис. – Тошкент, 2004.
3. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (панднома). – Тошкент: Халқ мероси, 1994.
4. Куръони Карим. (Таржима ва изоҳлар, муаллиф Алоуддин Мансур). –Тошкент: Чўлпон, 1992.
5. Қличев У.А. Ўзбекистонда миллий хунармандчиликнинг ривожланиши (1991-2006 йиллар): Тарих фанлари номзоди...дис. – Тошкент, 2010.
6. Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). – Тошкент: Фан, 1971.
7. Rahmatulloh qori Obidov. Payg‘ambarlar tarixi islomiyat tarixidir (Qur‘oni Karimda payg‘ambarlar siymosi) 1-kitob. – Toshkent: Movarrunnah, 2005.